

Turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari		
Ma'lumot	Oliy	<i>Kamida bakalavr darajasiga ega bo'lishi lozim.</i>
Mutaxassislik	Turizm, madaniy meros, xalqaro munosabatlar va xalqaro iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish yo'nalishi	<i>Tanlovning suhbat bosqichida nomzodlarning imkoniyatlari teng bo'lgan taqdirda ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan yoki - xalqaro TOP-500, TOP-1000 ro'yxatidagi OTMlarni tugatgan nomzodlarga qo'shimcha ball beriladi. Bunda qo'shiladigan ball Tanlov komissiyasi tomonidan belgilanadi hamda baholash mezoniga kiritiladi.</i>
Mehnat staji	Mehnat faoliyatining oxirgi 10 yilligida davlat boshqaruv organlarida kamida 4 yil ish stajiga ega bo'lgan, shundan kamida 2 yili rahbarlik lavozimi bo'lishi	<i>Mehnat faoliyatining oxirgi 10 yilligida davlat boshqaruv organlarida kamida 4 yillik mehnat stajiga ega, shundan kamida 2 yilida ikki yoki undan ortiq xodimlarga rahbarlik qilgan bo'lishi lozim.</i>
Davlat tilini bilishi	Davlat tilini bilishi	<i>Suhbat jarayonida og'zaki va yozma nutqda fikrlarini uzviy ifoda eta olishi lozim.</i>
Xorijiy tilni bilish darajasi	Ingliz yoki nemis, fransuz, arab, xitoy va yapon tillaridan kamida bittasini B2 darajasida bilishi	<i>Ingliz tili (IELTS 5,5, yoki Davlat test markazi tomonidan beriladigan chet tilini bilish to'g'risidagi sertifikat-CEFR B2 darajasida bilish).</i>
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office (Word, Excel, Power point), ofis dasturlarini mukammal bilishi; internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalana olishi	<i>Word, Excel, PowerPoint kabi ilovalar hamda Internet tarmog'ida ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Nomzodning test sinovi bosqichida AKT yo'nalishida berilgan savollarga javobi suhbat jarayonida inobatga olinadi. Bunda test sinovi natijasi bo'yicha qo'yiladigan ball Tanlov komissiyasi tomonidan belgilanadi hamda baholash mezoniga kiritiladi. Test sinovi savollari tarkibidagi AKT yo'nalishi vazni tashkilot tomonidan belgilanadi.</i>
Qo'shimcha talablar	Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish tajribasi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi	<i>Mamlakatda turizm sohasida olib borilayotgan islohotlardan xabardor bo'lishi, hududlarning turizm salohiyati va xorijiy davlatlarda turizm sohasida olib borilayotgan yangiliklar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi, tahlil qilish ko'nikmalarining mavjudligi; xalqaro miqyosda va respublikada turizmni rivojlanishining asosiy tendensiyalarini o'rganish va tahlil qilish hamda uning asosida turizm sohasini yanada rivojlantirish borasida takliflar ishlab chiqish tajribasi;</i>

		<i>O'zbekistonda turizm sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlashga va hududlarning turizm jozibadorligini baholashga qaratilgan maxsus tadqiqotlarni o'tkazishni tashkil etish tajribasi;</i> <i>turizm sohasida tashkiliy faoliyat usullari;</i> <i>turistik faoliyatni bashorat qilish va rejalashtirish usullari;</i> <i>turistik va rekreatsion hududlarni rivojlantirish va rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va tahlil qilish;</i> <i>turizm faoliyatining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va turizm sohasida iqtisodiy strategiyasini shakllantirish</i>
--	--	---